

**2026-2027-O‘QUV YILIDA IXTISOSLASHTIRILGAN TA’LIM
MUASSASALARI AGENTLIGI TIZIMIDAGI BAHODIR JALOLOV NOMIDAGI
BOKSGA IXTISOSLASHTIRILGAN SPORT MAKTABINING QABUL
IMTIHONI MATERIALLARI SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent - 2026

IXTISOSLASHTIRILGAN TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI
TIZIMIDAGI BAHODIR JALOLOV NOMIDAGI
BOKSGA IXTISOSLASHTIRILGAN SPORT MAKTABINING QABUL
IMTIHONI MATERIALLARI
SPETSIFIKATSIYASI)
2026/2027 (o'quv yili)

Mazkur spetsifikatsiya 4-sinfga qabul qilinadigan o'quvchilarni imtihondan o'tkazish, sinovida foydalaniladigan test topshiriqlarining mazmuni, qamrovi, turi, shakli, baholash mezonini va o'tkazilish tartibiga qo'yilgan talablarni aks ettiradi.

I. Umumiy tamoyillar

Baholash maqsadi – talabgorlarning matematika fani bo'yicha nazariy bilimlari, amaliy ko'nikma va qobiliyatlarini kompleks baholash. Mazkur baholash natijalari asosida maktabga qabul qilinadigan qarorlar valid (asoslangan) bo'lishini ta'minlash maqsadida baholashning barcha bosqichlarida validlik, ishonchlilik, adolat va shaffoflik tamoyillariga rioya qilinishi ta'minlanadi.

II. Me'yoriy asoslar

1. Vazirlar Mahkamasining 2023 - yil 27 - maydagi "Prezident, ijod, ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlariga o'quvchilarni saralab olish hamda qabul qilish tartibiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 214-son Qaror.

2. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirining 2024-yil 7-avgustdagi 248 - sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan Bahodir Jalolov nomidagi boksga va Oksana Chusovitina nomidagi gimnastikaga ixtisoslashtirilgan sport maktablariga o'quvchilarni saralab olish va qabul qilish tartibi to'g'risida muvaqqat NIZOM.

III. Baholash qamrovi

Imtihon savollarining har bir varianti 20 ta mantiqiy fikrlashga doir savollar va 15 ta psixologik jarayonni aniqlash uchun bitta muqobil javobga ega bo'lgan test topshiriqlaridan iborat. Test topshiriqlari uchun 60 daqiqa vaqt beriladi. Har bir psixologik test uchun 2 ball dan jami 20 ball, intellektual qobiliyat darajasini aniqlash bo'yicha 1 ball dan jami 15 ball beriladi. Jami test topshiriqlari uchun 35 ball beriladi.

IV. Test topshiriqlarining mazmuni

Intellektual qobiliyat (mantiqiy fikrlash) darajasini aniqlash bo'yicha test topshiriqlari quyidagilar asosida shakllantiriladi:- Raven (noverbal intellektni aniqlash); - Ayzenk (intellektual koeffitsiyentni aniqlash); - Amtxauer (intellekt tuzilishini diagnostika qilish); - Veksler (IQ ni baholash, umumiy intellekt va uning tarkibiy komponentlarini diagnostika qilish). Test topshiriqlari o'quvchilarning intellektual qobiliyati (mantiqiy fikrlash) darajasini aniqlashga qaratilgan. Ular o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, mantiqiy ketma-ketlik va

mantiqiy bog‘liqlikni to‘g‘ri anglash, dalillarni solishtirish va ular o‘rtasidagi aloqani aniqlash, tushunchalarni tasniflay olish qobiliyatini tekshiradi.

Bunda yopiq test topshiriqlaridan (*yagona to‘g‘ri javobni talab qiladigan test topshiriqlari(Y1)*), *moslashtirishni talab qiladigan test topshiriqlari(Y2)* va *ketma-ketlikni talab qiladigan test topshiriqlari(Y3)* foydalaniladi. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalar bo‘yicha taqsimoti quyidagi jadvalda aks etgan:

V. Test topshiriqlarining mazmun sohasi va baholanadigan bilim va ko‘nikmalari bo‘yicha taqsimoti

1-jadval

Intellektual qobiliyat darajasini aniqlash

Mazmun soha	Baholanadigan konstruktlar	Savollar soni
<i>Matematik savodxonlik</i>	<ul style="list-style-type: none"> -shakllarning aylanishi, geometrik hajmli va yassi shakllarning fazoda joylashishini aniqlash; -hajmli shakllarni xayolan tarkibiy qismlarga ajratish; -obyektlar o‘rtasidagi munosabat va bog‘liqliklar, obyektlarning muhim belgi va xususiyatlari aniqlash; -shakl va obyektlarni birlashtirib, obyektlarning yaxlit qiyofasini yaratib, mantiqiy bog‘liqligini o‘rnatish. -sonlar qatori, mantiqiy masalalarni, sonli boshqotirmalarni qonuniyatini aniqlash; -sonlar qatorida raqamlar mantiqiy ketma-ketligining xususiyatlarini aniqlash; 	8 ta
Abstrakt mantiq	<ul style="list-style-type: none"> -tasavvurda shakl va obyektlarni muayyan burchakka soat yo‘nalishi bo‘ylab va unga qarshi aylantirish bo‘yicha mulohaza qilish; -amalga oshirilgan harakatlar ketma-ketligini, -obyektlarning joylashuvi ketma-ketligini aniqlash; -keltirilgan namuna asosida tasvirlarning simmetrik shaklni aniqlash; 	5 ta
Verbal mantiq	<ul style="list-style-type: none"> -so‘zlarning shakli bilan lug‘aviy ma’nosi orasidagi bog‘liqlikni aniqlash; -so‘z va tushunchalar o‘rtasidagi mantiqiy qonuniyatlarini o‘rnata olish; -berilgan shart asosida so‘zlar tuzish; -alifbo tartibidagi harflar ketma-ketligining mantiqiy qonuniyatlarini aniqlaydi; - anagrammaning yechimini topa oladi; - tushunchalarning o‘zaro bog‘liqligini birlashtiruvchi xususiyatlarini ajrata oladi; 	7 ta

Mazmun soha	Konstruktlar	Savollar soni
Komunikativ rivojlanish	-jamoadagi odob-axloq qoidalariga rioya qilish; -hamkorlik, jamoada muloqot: (navbat, sherik bilan ishlash); -guruhda o'z o'rnini anglash (huquq–majburiyat); nizoni tinch yo'l bilan hal qilishni tanlash;	3
Ijtimoiy fikrlash	-o'ziga ishonch (vazifani bajarishga kirishish); refleksiya (xatoni ko'rsa tuzatish); -javobgarlik (qoidani buzmaslik, va'daga amal qilish); -emotsiyani boshqarish (impulsiv harakat o'rniga to'g'ri variantni tanlash);	3
Shaxsiy rivojlanish	-o'zini boshqarish: hayajon/uyalish paytida tinchlanish usulini tanlash; -motivatsiya va maqsad qo'yish: -qat'iyat (resilience): xatodan keyin qayta urinadi, bahona qilmaydi. -mas'uliyat: forma, suv, qizish mashqlariga tayyorgarlikni rejalashtish;	4
Jismoniy rivojlanish	-shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish; -sog'lom turmush tarziga amal qilish; -xavfsiz hayot faoliyati asoslida qoidalariga rioya qilish;	5

VI. Imtihan tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihan vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyman etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihan davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

VII. Tavsiya etiladigan asosiy adabiyotlar

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, test topshiriqlari mazmuni quyida tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyillar va yondashuvlar bilan moslashtiriladi. Nomzodlar mazkur adabiyotlar mazmunini yodlash orqali yuqori ball olishni kutmasliklari kerak. Tavsiya etilgan adabiyotlar malaka sinovlariga tayyorgarlik ko'rish manbayi sifatida xizmat qiladi.

1. Repyova I. V: "Matematika" darslik 3-sinf Toshkent : "Novda" - 2023y

Qo'shimcha adabiyot:

2. Mirzaahmedov M.A: "Matematikadan masalalar to'plami" 3-sinf Toshkent: ZUKKO
KITOBXON nashiriyot-matbaa uyi, 2024 y